

**JAHON IQTISODIYOTIDA IQTISODIY O'SISH TURLARI: SAMARALI RIVOJLANISH
YO'LINI IZLAB**

Jabborov Islombek Rustam o'g'li

*TDYU Ommaviy huquq fakulteti Davlat boshqaruvi yo'nalishi
1-kurs talabasi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada jahon iqtisodiyotidagi iqtisodiy o'sish turlari, jumladan, ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish modellarining mohiyati, ularning ijobiy va salbiy tomonlari o'rganilgan. Ushbu modellar davlatlarning iqtisodiy siyosatiga qanday ta'sir ko'rsatishi va rivojlanish yo'nalishlarini belgilab berishi yoritib berilgan. Tahlillar nazariy, statistik va qiyoslash metodlari asosida amalga oshirilgan.*

Kalit so'zlar: *Iqtisodiy o'sish, intensiv model, ekstensiv model, chiziqli iqtisodiy o'sish, eksponensial iqtisodiy o'sish, siklik iqtisodiy o'sish, LTGM (Uzoq muddatli o'sish modeli)*

Annotation: *This article examines the types of economic growth in the world economy, including the essence of extensive and intensive economic growth models, their positive and negative aspects. It highlights how these models affect the economic policy of countries and determine the directions of development. The analysis is carried out on the basis of theoretical, statistical and comparative methods.*

Keywords: *Economic growth, intensive model, extensive model, linear economic growth, exponential economic growth, cyclical economic growth, LTGM (Long-term growth model)*

Аннотация: *В данной статье рассматриваются типы экономического роста в мировой экономике, в том числе сущность экстенсивной и интенсивной моделей экономического роста, их положительные и отрицательные стороны. Объясняется, как эти модели влияют на экономическую политику государств и определяют направления развития. Анализ проводился на основе теоретических, статистических и сравнительных методов.*


Ключевые слова: *Экономический рост, интенсивная модель, экстенсивная модель, линейный экономический рост, экспоненциальный экономический рост, циклический экономический рост, LTGM (модель долгосрочного роста).*

Jahon iqtisodiyoti bu dunyodagi mavjud jamiki davlatlar o'rtasida kehadigan barcha iqtisodiy aloqalar: savdo, investitsiyalar, ishchi kuchi migratsiyasi, texnologiyalar almashinuvi, iqtisodiy siyosatlar va boshqa iqtisodiy sohalarda amalga oshiriladigan aloqalar bo'lib, jahon iqtisodiyotida iqtisodiy o'sish turlarini tahlil qilish orqali zamonaviy dunyo iqtisodiyoti rivojlanishning qanday yo'ldan ketayotganligini bilib olish mumkin. Mazkur mavzu dolzarbligi jihatidan alohida e'tibor bilan yondashishni talab qiladi. Chunki iqtisodiy o'sish turlarini global miqyosda o'rganish anchayin murakkab jarayon bo'lib, buning uchun jahondagi mavjud barcha

davlatlarning iqtisodiy tizimi, iqtisodiy qonunchilik siyosati, geografik omillari (joylashuvi, jahon bozoriga chiqish imkoniyatlari, tabiiy resurslari, demografik holati) hisobga olinishi lozim. Mavzuni o'rganish doirasida jahon iqtisodiyotida qanday iqtisodiy o'sish turlari bor va ular qanday kategoriyalar bo'yicha hisoblanadi, bu kategoriyalar qanchalik real ya'ni qanchalik haqiqatga yaqin, qaysi iqtisodiy o'sish turi samaraliroq, ularning qanday ijobiy va salbiy tomonlari bor degan savollarga javob olamiz. Ushbu mavzuni har jihatdan tahlil qilishda nazariy, statistik va qiyoslash metodlaridan foydalanamiz hamda uni alohida mintaqalar, davlatlar kesimida ko'rib chiqamiz. Dastavval iqtisodiy o'sish o'zi nima ekanligiga to'xtalsak, iqtisodiy o'sish bu to'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish darajasining uzoq muddatli ko'payishi tendensiyasini anglatadi. Iqtisodiy o'sish yalpi taklifning o'sishini yoki boshqacha aytganimizda, haqiqiy va potensial YaIM hajmining oshishini bildiradi¹. Sodda qilib aytganda iqtisodiy o'sish deb mamlakatdagi ishlab chiqarilayotgan tovar va xizmatlar miqdorining avvalgi yillarga nisbatan oshishiga aytiladi. Iqtisodiy o'sish har bir davlat hukumatining iqtisodiy sektorda qo'ygan asosiy vazifasi hisoblanadi. Chunki iqtisodiy o'sish mamlakat aholisining farovon hayot kechirishi, davlat barqarorligi va jahon hamjamiyati oldidagi mavqeyiga ta'sir qiladigan omillar sirasiga kiradi. Iqtisodiy o'sish unga qanday erishilishiga bog'liq holda ikkiga bo'linadi: ekstensiv va intensiv. Ekstensiv iqtisodiy o'sish son jihatdan ko'payishga va tezkor natijalarga urg'u qaratadi. Bunda korxonalar ishlab chiqarishning texnik vositalarini zamonga mos ravishda yangilab borishga emas, balki ishlab chiqarish vositalarini son jihatdan ko'paytirishga e'tibor qaratadi. Intensiv iqtisodiy o'sishning asosiy maqsadi esa sifat jihatdan yaxshilanishdir. Buni korxonalar misolida ko'rib chiqamiz. Deylik, bitta sanoat stanogi yordamida bir kunda 1000 ta ruchka ishlab chiqarish mumkin. Endi korxonaga kuniga 1000 ta emas 2000 ta ruchka ishlab chiqarishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ydi. Agar korxonaga ekstensiv ravishda rivojlanish yo'lidan ketayotgan bo'lsa bu holda yana bitta xuddi shunday ishlab chiqarish quvvatiga ega bo'lgan stanok sotib olinadi. Rivojlanishning intensiv modelini tanlagan korxonaga esa bu vaziyatda yana avvalgisiga kabi bir xil bo'lgan stanok sotib olish o'rniga zamonaviy, iqtisodiy samaradorligi yuqori bo'lgan eng so'nggi tipdagi stanokni sotib oladi. Amaliyotda ekstensiv tipdagi iqtisodiy o'sish o'zini oqlamagan, buni SSSR, Yugoslaviya va Chexoslovakiya kabi sovuq urush davrida sotsialistik lager tarkibida bo'lgan davlatlar misolida ko'rish mumkin. Ekstensiv iqtisodiy siyosat yuritish dastavval ijobiy natijalarga olib keladi. Ammo, bu vaqtinchalik holat bo'lib, agar hukumat bu modelda "qotib" qoladigan bo'lsa vaqt o'tgan sari davlat iqtisodi jiddiy muammolarga duch keladi. Buni SSSR misolida ko'radigan bo'lsak, Rossiyada bolsheviklar hokimiyatga kelgandan so'ng mamlakat iqtisodiyoti ekstensiv rivojlanish yo'lga o'tkazilib, yangi yerlar o'zlashtirildi, sanoat korxonalarini qurildi, neft, oltin, metallurgiya va boshqa xomashyo yetkazib beruvchi sohalar jadal o'sdi, aholi ish bilan

¹ B.T. Salimov, M.T. Asqarova, I.A. Yakubov, M.S. Yusupov, G.T. Yuldashev, H.A. Hakimov. Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot. Darslik. –T.: "Iqtisodiyot", 2019, - 375- b.

ta'minlanib, yashash darajasi ham birmuncha izga tushdi. Ammo sovetlar tomonidan sanoat korxonalarining texnologik bazasi zamonga mos ravishda yangilanib borilmadi, qishloq xo'jaligida esa mahsulotlar unumdorligini oshirishda serhosil navlar yaratishdan ko'ra ekin maydonlarini ko'paytirishga asosiy e'tibor qaratildi. Buning natijasida 1980-yillarda mamlakatdagi mavjud korxonalarining 40 foizi zarar bilan ishlagan². Bunga qarama-qarshi ravishda intensiv iqtisodiy o'sish yo'lidan ketgan g'arb davlatlari iqtisodiy taraqqiyotda katta yutuqlarga erishdi. Bu holni 1-ilovada keltirilgan jadvalda ham ko'rish mumkin. AQSH, Yaponiya va qator Yevropa davlatlari aholi jon boshiga YaIM



1. ilova.1913-1990-yillarda Davlatlar YaIMdagi o'sish dinamikasi³

hajmining o'sishi borasida SSSR dan katta farq bilan ilgari ketgan. Bu ko'plab omillar bilan bir qatorda mamlakatlarning iqtisodiy o'sish borasida tanlagan o'z rivojlanish modellari bilan ham bog'liq edi.

Bundan tashqari davlatlar iqtisodiy siyosati, texnologik infratuzilmasi ishlab chiqarish samaradorligi va resurslardan foydalanish darajasiga qarab *chiziqli*, *siklik* va *eksponensial* iqtisodiy o'sish modelidagi davlatlarga bo'linadi⁴. Chiziqli iqtisodiy o'sish modelidagi davlatlar iqtisodiyoti turg'un yoki juda sekinlik bilan o'sadi. Bu model rivojlanmagan davlatlar uchun xos bo'lib, ular uchun iqtisodning tabiiy boyliklarga kuchli bog'langanligi va sanoatning sust rivojlanganligi xosdir. Keniya, Bangladesh va Vetnam shunday davlatlar sirasiga kiradi. Siklik iqtisodiy o'sish modelidagi davlatlarning iqtisodiy rivojlanishi esa tez o'zgaruvchan bo'lib, iqtisodiy yuksalishlar va inqirozlar yonma-yon yuradi ya'ni iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari tebranma xarakter kasb etadi. Siklik iqtisodiy o'sish modelidagi davlatlarga rivojlanayotgan Turkiya, Braziliya va Argentina kabilar misol bo'la oladi. Iqtisodiy taraqqiyot yalovbardorlari

² Chapter IV.2 Enterprise Reform in: A Study of the Soviet economy

³ Soviet Union USSR GDP per capital

⁴ Business Cycles: Theory, History, Indicators, and Forecasting. Viktor Zarnovitz..National Bureau of Economic Research, Inc-nashriyoti.1992.181-b.

bo'lgan AQSH, Yaponiya va Xitoy kabi mamlakatlar iqtisodida eksponensial iqtisodiy o'sish modelining belgilari ko'zga tashlanadi. Bunday iqtisodiy tipdagi davlatlarda tabiiy resurslardan samarali foydalaniladi, sanoat korxonalari zamonaviy texnologiyalar bilan doimiy ravishda ta'minlanib, ular yangilanib boriladi, iqtisod barqaror va yuqori sur'atda o'sadi.

Yuqorida iqtisodiy o'sishning ekstensiv va intensiv turlari SSSR va G'arb mamlakatlari misolida ko'rib chiqildi. Bu davlatlarda iqtisodiy siyosat yuritishning asosiy tamoyillarini belgilab bergan bir qancha normativ hujjatlar borki, ularni ta'kidlamay iloj yo'q. Bu o'rinda Iosif Stalin davrida boshlanib, rejalashtirilgan iqtisodiy siyosat yuritish tamoyilini davlatning iqtisodiy sektorida hukmron prinsipga aylantirgan besh yillik rejalarni ta'kidlash lozim. Ulardan birinchisi 1928-yilda qabul qilingan *Birinchi besh yillik reja (1928-1932)* edi. Bu va boshqa shu kabi sovetlar tomonidan qabul qilingan iqtisodiy doktrinalar o'z xarakteriga ko'ra iqtisodiy o'sishga mavjud resurslardan oqilona foydalanish orqali emas, balki yangilarini o'zlashtirish bilan erishishga qaratilgan edi. Sovet davlati bilan parallel o'tkazadigan bo'lsak aynan shu davrda AQSHda Yangi iqtisodiy siyosat (New deal) nomli iqtisodiy strategik dastur ishlab chiqilib uning AQSH iqtisodini buyuk depressiyadan olib chiqishda ahamiyati beqiyos edi⁵. Sababi mazkur dastur AQSHni o'z ichki resurslaridan samarali foydalanishini va texnik taraqqiyotni qo'llab quvvatlashi bilan ahamiyatli edi. AQSHda keyinchalik ham qabul qilingan



Nyu-York shahri 1980-yillarda

Sankt-Peterburg 1988-yilda.

iqtisodiy dasturlarda ham uning ta'siri sezilib turgan. Hozirgi kunda dunyo davlatlari uchun iqtisodiy o'sishning samarali variantini taklif qiluvchi bir qator xalqaro dasturlar ishlab chiqilgan bo'lib, ulardan biri Jahon Bankining *Uzoq muddatli o'sish modeli (Long-Term Growth Model yoki LTGM)* hisoblanadi⁶. Bu modelning maqsadi rivojlanayotgan davlatlarga o'zlarining uzoq muddatli iqtisodiy rejalarini tuzishda yordam berishdan iboratdir. Biror mamlakat uchun LTGMni tuzishda tegishli davlat haqidagi zarur ma'lumotlar yig'iladi va ular tahlil qilinib, shu mamlakatning

⁵ [The New Deal — A Guide to FDR's Plan for Relief, Recovery, and Reform 1930s](#)

⁶ [Charting a path to Future Prosperity with the Long-Term Growth Model](#)

imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda Uzoq muddatli o'sish modeli yaratiladi. Indoneziya, Gana va Kolumbiya LTGMni amaliyotda qo'llayotgan davlatlar sirasiga kiradi. Bu davlatlarda mazkur dastur o'zining ijobiy samarasini ko'rsatmoqda.

Yuqorida jahon iqtisodiyotida qanday iqtisodiy o'sish turlari borligini, ularning ijobiy va salbiy jihatlarini davlatlar misolida o'rgandik va zamonaviy dunyoda taklif qilinayotgan samarali iqtisodiy o'sish dasturlari haqida ham ma'lumotlarga ega bo'ldik. Endi bu bilimlar asosida xulosa qilishga harakat qilamiz. Ekstensiv va intensiv iqtisodiy o'sish modellarini davlatlar miqyosida o'rgangach shunga amin bo'ldikki, ekstensiv iqtisodiy o'sish yo'li o'zini oqlamagan va butun boshli davlatlar tanazzulining asosiy sababchilaridan biriga aylangan. Intensiv iqtisodiy o'sish modeli esa amaliyotda muvaffaqiyatga erishgan. Bundan tashqari mamlakatlar o'zlarining iqtisodiy o'sishi xususiyatlaridan, holatidan kelib chiqib chiziqli, siklik va eksponensial modeldagi davlatlarga bo'linishini bilib oldik. Hozirgi kunda esa Jahon Banki tomonidan dunyo davlatlarining samarali iqtisodiy o'sish yo'llarini topishlari uchun LTGM dasturlari ham tuzilmoqda. Umuman olib qaraganda jahon iqtisodiyoti borgan sari globallashib bormoqda ya'ni mamlakatlar o'zlarida alohida iqtisodiy tajribalar o'tkazib, turli xildagi, yangi, hali sinovdan o'tmagan metodlarni qo'llash o'rniga amaliyotda sinalgan, o'z samarasini ko'rsatgan iqtisodiy rivojlanish yo'llaridan foydalanishni afzal ko'rishmoqda. Bu ayniqsa, birgalikda rivojlanishni maqsad qilgan bugungi dunyo uchun muhimdir

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. [Economic growth](https://www.rba.gov.au/education/)(<https://www.rba.gov.au/education/>)
2. B.T. Salimov, M.T. Asqarova, I.A. Yakubov, M.S. Yusupov, G.T. Yuldashev, H.A. Hakimov. Mikroiqtisodiyot. Makroiqtisodiyot. Darslik. –T.: “Iqtisodiyot”, 2019, - 375- b.
3. [SOVIET SOCIETY IN THE 1980S: PROBLEMS AND PROSPECTS](#)
4. [Chapter IV.2 Enterprise Reform in: A Study of the Soviet](#)
5. [Soviet Union USSR GDP per capital](#)
6. [Models of Economic Growth | Macroeconomics](#)
7. Business Cycles: Theory, History, Indicators, and Forecasting. Viktor Zarnovitz..National Bureau of Economic Research, Inc-nashriyoti.1992.
8. [The New Deal — A Guide to FDR's Plan for Relief, Recovery, and Reform 1930s](#)
9. [Charting a path to Future Prosperity with the Long-Term Growth Model](#)
10. [The Long Term Growth Model: Fundamentals, Extensions, and Applications](#)Norman V. Loayza and Steven Pennings Policy Research Talk – March 21, 2023